

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**NAIMOV HUSNIDDIN NURIDDIN O‘G‘LI**

**SHIMOLIY FARG‘ONA TOG‘OLDI LANDSHAFTLARINING  
STRUKTURASI, BAHOLASH VA GEOEKOLOGIK VAZIYATI**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona  
foydalanish**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA  
FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации на соискание ученой степени  
доктора философии (PhD) по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
geographical sciences**

**Naimov Husniddin Nuriddin o‘g‘li**

Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarining strukturasi, baholash va geoeologik  
vaziyati .....

**Наимов Хусниддин Нуриддин угли**

Структура, оценка и геоэкологическая ситуация ландшафтов предгорий  
Северной Ферганы .....

**Naimov Husniddin Nuriddin ugli**

Structure, assessment and geoeological situation of the foothill landscapes of  
Northern Fergana .....

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**NAIMOV HUSNIDDIN NURIDDIN O‘G‘LI**

**SHIMOLIY FARG‘ONA TOG‘OLDI LANDSHAFTLARINING  
STRUKTURASI, BAHOLASH VA GEOEKOLOGIK VAZIYATI**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona  
foydalanish**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA  
FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Gr233 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Boymirzayev Karimjon Mirzaxmedovich**  
geografiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdug'aniyev Olimjon Isomiddinovich**  
geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rafiqova Nodira A'zamovna**  
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharov Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_» soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand sh. Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-16-36, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru Samarqand davlat universiteti, Geografiya va ekologiya fakulteti).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_da tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**S.B.Abbasov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash asosida tuzilgan bir martalik  
Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

**B.A.Meliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d. (PhD) dotsent

**N.R.Alimkulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash asosida tuzilgan bir martalik  
Ilmiy seminar raisi, g.f.d. (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda aholi sonining geometrik progressiya asosida o'sib borishi tabiiy resurslarga bo'lgan bosimning ortishiga, landshaftlar transformatsiyasi va geokologik muammolarning kuchayib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu muammolarning oldini olish, ularga qarshi kurashishga xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish bo'yicha dasturining 15-maqsadida «Quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o'rmonlarni rasional boshqarish, cho'llashishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to'xtatish va biologik xilma-xillikning yo'qolishini oldini olish»<sup>1</sup> vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimida, ayniqsa, landshaft strukturasi va biologik xilma-xilligi turlicha bo'lgan tog' va tekislik mintaqalari oralig'idagi tog'oldi hududlari landshaft xilma-xilligini barqarorlashtirish va geokologik vaziyatini optimallashtirishni taqozo etadi.

Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, jumladan, tabiatdan oqilona foydalanish tamoyillari va yondashuvlari asosida tog'oldi landshaftlarini o'ziga xosligi va funksional bir butunlik xususiyatlari asosida tabiiy hududiy komplekslarini landshaft sferasining alohida kategoriyasi sifatida tadqiq etish, strukturasi tasniflash, landshaft-meliorativ holatini aniqlash, vaziyatini geokologik jihatdan yaxshilash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, landshaftlarning strukturaviy tuzilishi va transformatsiyasini dala sharoitida o'rganish, sun'iy yo'ldosh va GAT texnologiyalaridan foydalanib olingan raqamli ma'lumotlar asosida xaritalarini yaratish, geokologik vaziyatini xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun baholashga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tabiatga chiqariladigan zararli chiqindilarni ruxsat etilgan me'yor darajasidan oshirmaslik bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda va sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish"<sup>2</sup> yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, antropogen bosim yuqori bo'lgan Farg'ona vodiysining transchegaraviy xususiyatga ega shimoliy qismidagi tog'oldi landshaftlari strukturasi aniqlash, xilma-xilligini baholash va geokologik vaziyatini optimallashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi «2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5863-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni; O'zbekiston Respublikasi

---

<sup>1</sup> UN Sustainable Development Goals, 2015. Protect, restore and promote sustainable use of terrestrial ecosystems, sustainably manage forests, combat desertification, and halt and reverse land degradation and halt biodiversity loss. URL: <https://sdgs.un.org/goals/goal15>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 484-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi «2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 83-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” va VIII. “Yer haqidagi fanlar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Landshaftlar xilma-xilligi va geoeologik muammolarning yechimlariga oid tadqiqotlar ko‘plab xorijiy olimlar A.Karlsson, De Martino, E.Stadelmann, S.Frederick, Y.Odum, E.Neef, D.Harvey, I.Schmithusen, C.Troll, C.Shannon, R.Ricklefs, H.Haase, Y.Demek, T.Nakano, G.White, C.Conrad, M.Rahmann, M.Machwitz va MDH olimlari И.А.Ильин, В.Б.Сочава, Д.Л.Арманд, А.Г.Исаченко, Б.И.Кочуров, Н.А.Гвоздецкий, А.Д.Никанорова, В.А.Ковда, В.Г.Березовский, М.А.Белоусов kabi olimlar izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Shuningdek, L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.A.Rafiqov, A.A.Abdulqosimov, L.A.Alibekov, A.Soatov, A.Maqsudov, B.A.Kamalov, Sh.S.Zokirov, X.Vaxobov, A.N.Nigmatov, Y.Sultonov, S.B.Abbasov, A.Raxmatullaev, V.A.Rafiqov, K.M.Boymirzayev, Sh.M.Sharipov, Q.S.Yarashev, A.A.Nazarov, O.I.Abdug‘aniyev, O.M.Qo‘ziboyeva, O.T.Mirzamaxmudov kabi mamlakatimiz olimlari tomonidan ham tog‘oldi landshaftlarida kuzatilayotgan turli xil tabiiy geografik va geoeologik jarayonlarni tadqiq qilish ishlari olib borilgan.

Biroq, yuqorida nomlari keltirilgan olimlar tomonidan bajarilgan ilmiy izlanishlarda Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarining strukturasi, transformatsiyasi, kartalashtirish ishlari va xo‘jalikda foydalanish nuqtai nazaridan baholanishi alohida o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqot ishi ayni ushbu masalalarga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Namangan davlat universiteti Geografiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrasining “Farg‘ona vodiysida ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishning tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va landshaft-ekologik omillarini tadqiq qilishning mintaqaviy xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi mintaqasini bir butun geotizim sifatida geoeologik vaziyatini baholash va barqaror rivojlanishi bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilangan:

tog'oldi mintaqasini alohida struktura sifatida ajratish, chegaralarini aniqlash va kartalashtirish;

Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarining hududiy tabaqalanishidagi zonal va azonal qonuniyatlarning o'ziga xosligini aniqlash, antropogen omillarning ta'sirini baholash;

Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarining transformatsiyasi va dinamikasini geokologik indikatorlar asosida aniqlash;

Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasi landshaftlari va geokologik vaziyatining transchegaraviy jihatlarini tadqiq etish;

Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasida vujudga kelgan geokologik vaziyatni baholashdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasining landshaft komplekslari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarini bir butun alohida geotizim ekanligini asoslash, landshaftlar strukturasi va transformatsiyasini baholash, geokologik jihatdan rayonlashtirish hamda tabiatini muhofaza qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida dala tadqiqot, marshrutli ekspeditsiya, kartografik, statistik, geografik taqqoslash, monografik tahlil, retrospektiv tahlil, geografik ekstrapolyatsiya, aerokosmik, GAT texnologiyalari kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasi landshaft xususiyatlari, geokologik vaziyati, bioxilma-xillikning o'zgarib borishi nuqtai nazardan o'ziga xos alohida geotizim ekanligi asoslangan, o'zaro taqqoslash va kartografik manbalar yaratish orqali boshqa hududlar landshaftlaridan tubdan farq qiluvchi belgilari hamda ichki tafovutlari aniqlangan;

Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasida landshaft transformatsiyasi yerosti va yerusti suvlarining ifloslanishi, tuproq va o'simlik degradatsiyasi asosida uch bosqichga (1990, 2005, 2023-yillar) bo'lib davrlashtirilgan hamda geokologik vaziyati baholangan;

tog'oldi landshaftlarining antropogen bosim va tabiiy geografik omillar ta'sirida o'zgarishi natijasida vujudga kelgan landshaft-ekologik vaziyatdan kelib chiqib, Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasi 4 ta geokologik rayonga ajratilgan, har bir rayon geokologik jihatdan tavsiflangan va rayonlashtirish kartasi yaratilgan;

sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va kosmik suratlar asosida Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasi landshaftlari, tabiiy geografik sharoiti va geokologik vaziyati ArcGIS dasturi orqali yirik (1: 100 000) masshtabli landshaft va landshaftlar o'zgarishini baholash, o'simlik xaritasi va o'simlik degradatsiyasi, tuproq xaritasi va tuproq degradatsiyasi, geokologik xaritalari yaratilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasining 1:100 000 masshtabli landshaft va geokologik xaritalari ishlab chiqilgan;

Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasi landshaftlarining transformatsiyasi raqamli texnologiyalar orqali o'rganilgan hamda xaritalari ishlab chiqilgan;

Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarining turli masshtabda tuzilgan xaritalari tog‘oldi landshaft komplekslarini boshqarishda, hududning tabiatidan unumli foydalanish chora-tadbirlarini ilmiy asosda olib borishda muhim omil ekanligi asoslangan;

tog‘oldi landshaftlaridan oqilona foydalanish masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar qishloq xo‘jalik ekinlarini yer osti suvlari sathining joylashuvi, tuproq va landshaft tiplariga moslashtirib joylashtirish, yangi yerlarni o‘zlashtirish, noxush landshaft-ekologik muammolarni bartaraf etish kabi jarayonlarda foydalanish imkonini berganligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishini bajarish davomida tadqiqot natijalarining ishonchliligi mintaqa (Qirg‘iz Respublikasining Jalolobod viloyati va O‘zbekiston Respublikasining Namangan viloyati) Iqlim o‘zgarishi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari, qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi boshqarmalarining statistik ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi va ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlari o‘ziga xos alohida geotizim sifatida asoslanganligi, tog‘oldi mintaqasining adir va platolardan farqli jihatlari ochib berilganligi, indikatorlar asosida geoekologik jihatdan rayonlashtirish metodologiyasining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati olingan xulosalar va yaratilgan xaritalar orqali transchegaraviy resurslardan birgalikda foydalanish, tuproq tarkibining o‘zgarishi va o‘simliklar degradatsiyasi kabi muammolarning ekologik oqibatlarini yechimiga qaratilgan loyihalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarining sutrukturasi, baholash va geoekologik vaziyatini tahlil qilish hamda geoekologik jihatdan rayonlashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi mintaqasi landshaft xususiyatlari, geoekologik vaziyati, bioxilma-xillikning o‘zgarib borishi nuqtai nazardan o‘ziga xos alohida geotizim ekanligining asoslari, o‘zaro taqqoslash va kartografik manbalar yaratish orqali boshqa hududlar landshaftlaridan tubdan farq qiluvchi belgilari hamda ichki tafovutlarining geografik oqibatlarini ifodalovchi ishlanmalari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 25-sentabrdagi 03-03/3-9383-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarida vujudga kelgan noxush ekologik vaziyatlarni bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish imkonini bergan;

Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi mintaqasida landshaft transformatsiyasi yerosti va yerusti suvlarining ifloslanishi, tuproq va o‘simlik degradatsiyasi asosidagi davrlashtirishlari hamda geoekologik vaziyatining baholashlari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil, 25-sentabrdagi

03-03/3-9383-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Shimoliy Farg'ona tog'oldi hududlarida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida qishloq xo'jalik ekinlarini landshaft va tuproq tiplariga maqbul joylashtirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini bergan;

tog'oldi landshaftlarining antropogen bosim va tabiiy geografik omillar ta'sirida o'zgarishi natijasida vujudga kelgan landshaft-ekologik vaziyatdan kelib chiqib, Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasi 4 ta geokologik rayonlarining rayonlashtirish xaritasi va ishlab chiqilgan chora-tadbirlardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024 yil, 25-sentabr 03-03/3-9383 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasidagi geokologik vaziyatni baholash va mavjud muammolarni tizimli ravishda oldini olish, transchegaraviy strategik dasturlar ishlab chiqish imkonini bergan;

sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasi landshaftlari, tabiiy geografik sharoiti va geokologik vaziyati ArcGIS dasturi orqali yaratilgan yirik (1: 100 000) masshtabli landshaft va landshaftlar o'zgarishini baholash, o'simlik va o'simlik degradatsiyasi, tuproq va tuproq degradatsiyasi xaritalaridan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil, 25-sentabr 03-03/3-9383-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasining o'rganish noqulay hududlaridagi vaziyatini baholash, tahlil qilish va kuzatilayotgan jarayonlarga oid yo'l-yo'riqlar ishlab chiqish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur ishning tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning matn qismi 114 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy rejaları bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiq etish metodologiyasi va metodlari,

ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, himoyaga olib chiqilgan ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tog'oldi landshaft komplekslarini tadqiq qilishning ilmiy – nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tog'oldi landshaftlarining vujudga kelishi tog' va adir landshaftlariga o'xshash va farqli jihatlari keltirilgan.

Tog'oldi landshaftlarining shakllanishida tabiiy geografik omillarning roli, Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaft komplekslarini turli geografik metodlar orqali tadqiq etish, Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarini tabaqalanishining mazmun-mohiyati batafsil yoritilgan.

Tog'oldi mintaqasi – bu tog' tizmalariga yaqin joylashgan kichik tepaliklar va balandliklar bilan ifodalangan o'ziga xos relyef shakli bo'lib, amerikalik olim J.Donning (1999) yondashuviga ko'ra, tog'oldi (foothill) – bu adir va tog' mintaqasi oralig'idagi geomorfologik zona hisoblanadi. Rus olimi I.A.Il'inning (1959) keltirishicha, tog'oldi mintaqasi Farg'ona vodiysida 800-900 metrdan 1100-1600 metrgacha balandlikni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan, ishda Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasi 800-1400 m balandlik bo'yicha tahlil etilgan.

Tog'oldi landshaftlari to'g'risida so'z borganda, *tog'li hududlar* tushunchasini ham oydinlashtirish lozim. Ilmiy tadqiqotlarda tog'oldi hududini faqat relyef natijasiga ko'ra belgilash kerakmi yoki boshqa tabiiy komponentlarning xususiyatlarini ham e'tiborga olish kerakmi, tog'oldi hududlarini aniqlashda aynan qanday tabiiy–geografik omillarni e'tiborga olish lozim, degan savollar baxs-munozara talab qiladi. Umuman, hududning tog'oldi qismlarini belgilashda o'rganilayotgan hududning qaysi geografik mintaqada joylashganligi, u yerdagi tog' va tekisliklarning dengiz sathidan balandligi muhim hisoblanadi. Ma'lumki, bu omillarning ta'siri ostida iqlim, tuproq va o'simlik qoplami o'zgaradi hamda ular relyef bilan bir qatorda muayyan hududning qiyofasini belgilaydi. Shu sababli, sayyoramizning har qanday qismi uchun umumiy tushunchani berish juda mushkul.

Agar Daniyada qabul qilingan mezon bo'yicha, dengiz sathidan 200 metrdan yuqorida joylashgan relyef shakllari *tog'li hududlar* deb hisoblansa, sayyoramizda faqatgina bir relyef shakli, ya'ni tog'lar mavjud bo'lar edi. Tog'oldi, adir, qir, pastekislik kabi geomorfologik shakllar ajratilmas, barcha materiklar uchun tog'li materik tushunchasi qo'llanilardi. Tog'li hududlarni belgilashda faqat gipsometrik sath e'tiborga olinsa, u holda baland tekisliklar tushunchasidan voz kechishga to'g'ri keladi. Jumladan, Kordilyera tog' tizmasining sharqiy yonbag'riga tutashgan Buyuk tekisliklar deb nomlanuvchi mintaqa materikning sharqidagi Appalachi tog'laridan ham balandroq hisoblanadi. Chunonchi, Appalachi tog'lari Missisipi va Markaziy tekisliklardan baland ko'tarilib turadi, Buyuk tekisliklar esa Kordilyera tizmasiga taqqoslanganda tekislikdek tasavvur uyg'otadi va h.k.

Tabiiy resurslari cheklangan, demografik bosim yuqori bo'lgan Farg'ona botigining shimoliy qismi insonlar tomonidan yildan-yilga yanada jadal o'zlashtirilishi natijasida biologik muvozanatning buzilishi va bioxilma-xillikning o'zgarishi, tuproq qatlamining degradatsiyasi, kimyoviy elementlarning texnogen migratsiyasi kabi qator salbiy jarayonlar sodir bo'lmoqda. Oqibatda, mintaqada tuproq mahsuldorligi pasayib, yaylovlarning chorva sig'imi qisqarib bormoqda. Bu

esa asta-sekin tabiiy muvozanatning buzilishini keltirib chiqaradi. Bu borada, tekislik va tog‘li hududlar oralig‘idagi mazkur bog‘lovchi zonani tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarining antropogen bosim ta‘sirida o‘zgarishga uchrashi o‘z navbatida relyef nishabligi, suvo‘tkazuvchanligi tog‘ jinslarining zichligi, boshqa omillarning xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq. Relyefning holati, tog‘ jinslarining tarkibi va suv o‘tkazmaydigan qatlarning shakllarini hisobga oladigan ilmiy tavsiyalar asosida o‘zlashtirish, landshaftlarni asrab qolish va sug‘orishning agrotexnik usulini yaxshilash, sug‘orish inshootlarining meliorativ holatini takomillashtirish kabi muhimdir.

Agrolandshaftlarning rivojlanishi va ularning tabiiy sharoitning o‘zgarishiga ta‘siri. Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarida tabiiy-antropogen tizimlarning katta qismini agrolandshaftlar tashkil qiladi. Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlari agrolandshaftlarini sug‘orma dehqonchilik, lalmi dehqonchilik, yaylov va o‘tloqlar landshaftlariga bo‘lish mumkin. Agrolandshaftlar tabiiy landshaftlarga nisbatan tabiiy-dinamik o‘zgarishlarga nisbatan kamroq bardosh berishi bilan ajralib turadi. Chunki bu landshaftlarda antropogen ta‘sir natijasida tirik organizmlarning hayot faoliyatida, suv va issiqlik rejimida, tuproq hosil bo‘lish jarayonida va biogeokimyoviy modda almashinuvida muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bu o‘zgarishlar qishloq xo‘jalik yerlarida agrolandshaftlar muvozanati ozgina buzilganda turli xil salbiy hodisalarning (eroziya, deflyatsiya, ikkilamchi sho‘rlanish, yaylovlarning buzilishi va boshqalar) paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga olib keladi. Sug‘orma dehqonchilik landshaftlari hududlardagi meridional tarmoqlangan soy havzalari yo‘nalishlari bilan birgalikda shakllangan. Ushbu sug‘orma dehqonchilik maydonlari Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarining yuqori qismlariga nisbatan pastki (asosan O‘zbekiston) hududlarida yaxshi rivojlangan. Lalmikor dehqonchilik landshaftlari Farg‘ona vodiysi tog‘oldi landshaftlarining yuqori (asosan Qirg‘iz Respublikasi) qismlarida ancha rivojlangan. Yaylov landshaftlari esa Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarining yuqori qismlarida va pastki qiya yonbag‘irlarining tepaliklarida joylashgan.

Tog‘oldi landshaftlarining antropogen ta‘sir ostida o‘zgarishi relyefning ekspozitsiyasi, tog‘ jinslarining zichligi, suv o‘tkazuvchanligi va boshqa omillarning xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Relyef holati, tog‘ jinslarining tarkibi va suv o‘tkazmaydigan qatlarning shakllarini hisobga olgan holda ilmiy tavsiyalar asosida tadqiqotlar olib borish, landshaftlarni muhofaza qilish, sug‘orish agrotexnikasini takomillashtirish va sug‘orish inshootlarining meliorativ holatini yaxshilash alohida ahamiyatga ega. Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarning strukturasi hududning tabiiy geografik sharoitiga, yashaydigan aholining salomatligi esa geokologik vaziyatga bog‘liq. Shu jihatdan, barcha mintaqalarda antropogen landshaftlarni tadqiq etish hozirgi davr landshaftshunosligining oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi landshaftlarining strukturasi, geokologik vaziyati va kartalashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida asosiy e‘tibor Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi hududining tuzilishi, shakllanishi

va chegaralari, landshaft komplekslaridagi geokologik vaziyat, tog'oldi landshaft komplekslarini kartalashtirish masalalariga qaratilgan.

Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasi – Farg'ona botig'ining shimoliy qismidagi dengiz sathidan 800-1400 m balandlikdagi qismi bo'lib, shimoli-sharqda Qara-Suu daryo suvayirg'ichidan janubi-g'arbda Sarvaksoy havzasidagi Qirg'izjon tizmasining janubiy qismigacha cho'zilgan. Shimoliy chegarasi Qurama, Chotqol va Atoynoq tizmalarining 1400 metrli etaklaridan o'tadi. Janubiy qismi Chust-Pop, To'raqo'rg'on-Kosonsoy, Uychi-Chortoq va Moylisoy adirlarining shimoliy qismi bilan chegaralanadi. Ma'muriy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyatining Pop (janubi-sharq), Chust (shimoli), Kosonsoy (markazi va shimoli), Yangiqo'rg'on (markazi va shimoli), Chortoq (markazi va shimoli) hamda Qirg'iz Respublikasi Jalolobod viloyatining Ala-Buqa (janubi), Aq-Suu (janubi-sharqi) va Chatqol (janubi-sharq) tumanlarining tog'oldi hududlari kiradi.


Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasining maydoni 4090,5 km kv, uzunligi shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha 160 km ni tashkil etadi. O'rtacha kengligi 31 km bo'lib, eng keng 52 km, eng tori 11 km ni tashkil etadi. Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlari O'zbekistondagi boshqa tog'oldi hududlaridan geomorfologik strukturasi o'ziga xosligi, relyefining murakkabligi va hozirgi kunda insonlar tomonidan eng ko'p o'zlashtirilayotganligi bilan ajralib turadi.

Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarining transformatsiyasi qishloq xo'jaligi maqsadlarida hududning jadal o'zlashtirilishiga qadar sust kechgan. XX asrning oxirlariga kelib aholi sonining ko'payishi va bu orqali yer resurslari, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi hududni ilmiy jihatdan o'rganishni taqozo etdi. Shu jihatdan, tog'oldi landshaftlarini tadqiq etishda I.A.II'in, S.A.Shuvalov, N.A.Kogay, N.M.Reshetkin; A.A.Abdulqosimov, L.A.Alibekov, A.Maqsudov, B.A.Kamalov, A.N.Nigmatov, Y.Sultonov, I.Abdug'aniyev, K.M.Boymirzayev, Sh.M.Sharipov Q.S.Yarashev, O.I.Abdug'aniyev, A.A.Nazarov, O.T.Mirzamaxmudov kabi olimlarning hissalarini katta bo'ldi. Ular tomonidan hududning relyefi, iqlimi va ichki suvlari, tuproqlari va organik dunyosi chuqur o'rganilgan. Biroq, yuqorida nomlari keltirilgan olimlar tomonidan bajarilgan ilmiy izlanishlarda Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarining strukturasi, transformatsiyasi va xo'jalikda foydalanish nuqtai nazaridan baholanishi alohida o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot ishi ayni ushbu masalalarga bag'ishlanganligi va kartalashtirilganligi bilan ajralib turadi.

Xususan, Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarini kartalashtirishda landshaftshunoslar va kartograflar tomonidan ishlab chiqilgan tamoyil va metodlarga tayanilgan. Jumladan, kartalarni shakllantirishda areallar, nuqtalar, belgilar, kartogramma, bir joyga tegishli diagramma, chiziqli belgilar va sifatli rang kabi kartografik tasvirlash usullaridan foydalanilgan (1-rasm).

Yuqoridagi usullardan foydalanib, o'ndan ortiq xaritalar yaratilgan. Chunonchi, obyektida iqlimiy sharoit, tuproq xususiyati va o'simlik qoplamiga bog'liq holda landshaftlar 7 ta zona, ularning har biri yana landshaft tiplariga ajratilgan. Binobarin, Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasida «antropogen landshaftlar», «gipsli cho'l landshaftlari», «quruq dasht landshaftlari», «lyosli cho'l

landshaftlari», «chalacho‘l landshaftlari», «o‘rmon va siyrak o‘rmon landshaftlari», «subnival landshaftlari» balandlik bo‘yicha ajratilgan.



1-rasm. Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi hududining landshaft xaritasi

Chunonchi, mintaqadagi landshaft transformatsiyasi ushbu jarayonga ta’sir ko‘rsatgan omillarni inobatga olgan holda uch bosqichga ajratilgan:


I bosqich – 1990-yil: Sobiq Ittifoqning zaiflashuvi davri va mustaqillik arafasi. Bu davrda ushbu mintaqada tabiatga antropogen bosim nisbatan sust bo‘lgan; mustaqillik arafasida yerdan foydalanish shakli o‘zgarishining boshlanish davri ekanligi bilan xarakterlanadi.

II bosqich – 2005-yil: O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlik, YIMning 8 foizdan kam bo‘lmagan holda ortishi hamda sanoat ishlab chiqarishning tadrijiy o‘sish nuqtasi; Qirg‘iz Respublikasi hududida turistik oqimning jonlanishi va yerlarni xo‘jalik maqsadlarida faol o‘zlashtirishi bilan namoyon bo‘ladi.

III bosqich – 2023-yil: Transchegaraviy vaziyatda aholi punktlari va infratuzilma obyektlarining kengayishi, yerlardan foydalanishning jadal o‘sishi hamda suv resurslarining kamayishi bilan o‘ziga xoslikka ega bo‘lib, hozirgi davrni ifodalaydi.


Shimoliy Farg‘ona tog‘oldi mintaqasining, asosan, O‘zbekistonga qarashli janubiy qismi antropogen bosim ta’sirida nisbatan tezroq o‘zgarib bormoqda. Chunki obyektning bu hududi och va tipik bo‘z tuproqli lyosli mintaqqa, lalmi va sug‘oriladigan madaniy tuproqli seliteb landshaftlardan tarkib topgan. Qirg‘iz Respublikasiga qarashli shimoliy qismi esa aholi siyrak yashaydigan tipik sur

qo'ng'ir tuproqlardan iborat gipsli mintaqa, siyrak o'rmon va subnival zonalariga to'g'ri keladi hamda geoeologik barqarorligi nisbatan saqlangan. Biroq yarim asr avvalgi holatga taqqoslaganda transformatsiya jarayoni, landshaftlar assimetriyasi ko'zga yaqqol tashlanadi (2-rasm).



**2-rasm. Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasi tabiiy o'simlik qoplaminin transformatsiyasi**

Antropogen ta'sir natijasida yuzaga kelgan jarayonlar madaniy landshaftlar va qishloq xo'jaligi maqsadlarida o'zlashtirilgan hududlarda ko'zga yaqqol tashlanadi. Jumladan, xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiiy o'simlik qoplami kamayib bormoqda. Chunonchi, 1990-yilda degradatsiyaga uchramagan tabiiy o'simlik qoplami Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasining 41,5 foizini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 6,2 foizga tushib qolgan. Bu jarayon yog'in miqdorining kamayishi, seliteb (shahar, qishloq) landshaftlarning kengayishi, yaylovlardan ekstensiv foydalanish, qurilish ishlarining jadal sur'atlarda o'sishi orqali sodir bo'lmoqda (3-rasm).



**3-rasm. Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasi tuproqlarining degradatsiyaga uchrashi**

Shuningdek, qishloq xo'jaligida kimyoviy va moddalardan foydalanish, sanoat chiqindilarining chiqarilishi va tarkibida turli elementlar bo'lgan changlarning yer yuzasiga tushishi natijasida tuproq tarkibi o'ttiz yil avvalgi holatga qaraganda degradatsiyaga uchragan. Zero, 1990-yili tuproq tarkibida sho'rlanish alomatlari deyarli mavjud bo'lmagan tuproqlar Shimoliy Farg'ona tog'oldi mintaqasining qariyb 49 foizini egallagan bo'lsa, bu maydon 2023-yili qariyb 36 foizga qisqargan. Aksincha, sho'rlanish alomatlari yuqori bo'lgan tuproqlar maydoni 2 foizdan 12 foizgacha ko'paygan.

Dissertatsiyaning **“Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarini baholash va ularni geoeologik rayonlashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida

landshaftlarni baholashning mezon va tamoyillari, obyektning hozirgi holatidan kelib chiqib geoekologik indikatorlar asosida baholash metodologiyasi, tog'oldi mintaqasidan xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun iqtisodiy baholash ishlari amalga oshirilgan. Landshaftlarni baholash, xo'jalik faoliyatining ma'lum tarmog'ini rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan amaliy landshaftshunoslikning muhim tarmog'i hisoblanadi. Shuning uchun, landshaftlarni baholash masalasi amaliy landshaftshunoslikning hozirgi kunda eng muhim muammolaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Landshaftlarni ma'lum maqsadlar uchun baholashning asosiy mazmuni insoniyat jamiyatining turli talablaridan kelib chiqib, landshaftlarning yaroqliligi, qulay yoki noqulaylik darajasini aniqlashdan iboratdir.

Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarini baholashda – tabiiy sharoiti, geologik va geomorfologik tuzilishi, iqlimiy va gidrologik resurslari, tuproq qoplami va organik dunyosining o'zgarishi, inson xo'jalik faoliyatining ta'sir darajasi, antropogen landshaftlarning turi va ulushi, geoekologik sharoitning hozirgi holati va landshaftlar barqarorligi kabi omillar asos qilib olingan. Shu nuqtai nazardan, darajasiga ko'ra GAT texnologiyalari orqali o'zgarmagan, kuchsiz, o'rtacha, kuchli va juda kuchli o'zgarganligi keltirilgan.

Mustaqillikdan so'ng yangi yerlarni o'zlashtirishga bo'lgan talab tobora kuchayib bordi. Dastlab, adirlar o'zlashtirila boshlandi, keyinchalik o'zlashtirish tog'oldi mintaqasi tomon kengaydi. Hozirgi kunda bo'layotgan o'zgarishlar tabiiy o'simlik qoplami maydoniga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi, transformatsiya jarayonlari kuchayishi natijasida yangi madaniy landshaftlar paydo bo'lmoqda. Bu esa hududda ilmiy asoslangan xo'jalik faoliyatini yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatib beradi.

Inson faoliyatining ta'siri natijasida yuzaga kelgan turli xil antropogen landshaftlarni samarali boshqarish va tasniflash, zamonaviy landshaftshunoslikda muhim masalalardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Antropogen landshaftlarni tasniflash muammosining hal qilinishi, ularni dala sharoitida o'rganish va turli o'lchovlarda kartografik tadqiqotlar o'tkazishga imkoniyat yaratadi.

Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlarining holatini baholash va ulardan samarali foydalanish uchun bir qancha muhim omillarga e'tibor berish zarur. Ushbu omillar orasida landshaftlarning o'zgarish darajasi, eroziya jarayonlari, yer osti suvlarining darajasi, sho'rlanish ko'rsatkichlari, antropogen landshaftlarning umumiy maydondagi ulushi, qishloq xo'jaligi faoliyatining turlari, shuningdek, geologik va geomorfologik tuzilmalari kiritilgan.

Shimoliy Farg'ona tog'oldi landshaftlari inson faoliyatining ta'siri natijasida o'zgarish darajasiga ko'ra besh turga bo'lingan: o'zgarmagan, kuchsiz o'zgargan, o'rtacha o'zgargan, kuchli o'zgargan va juda kuchli o'zgargan holatlar. Bunday baholashlar, samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarning har birini hisobga olishni talab etadi.

Har bir landshaftda tabiiy sharoitlar o'zgaruvchan bo'lgani sababli landshaft-ekologik baholash natijalarini doimiy ravishda moslashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Baholashning yana bir yo'nalishi landshaft-ekologik baholash bo'lib, bunda asosiy subyekt inson hisoblanadi. Ushbu baholashning asosiy maqsadi inson faoliyatini to'g'ri va oqilona tashkil etishni ta'minlashdan iboratdir. Landshaftlarni

estetik nuqtai nazardan yoki rekreatsiya maqsadlarida baholash ham shu turdagi baholash ishlari qatoriga kiradi.

Antropogen taʼsir natijasida yuzaga kelgan jarayonlar madaniy landshaftlar va qishloq xoʻjaligi maqsadlarida oʻzlashtirilgan hududlarda koʻzga yaqqol tashlanadi. Jumladan, xoʻjalik faoliyati taʼsirida tabiiy oʻsimlik qoplami kamayib bormoqda. Chunonchi, 1990-yilda degradatsiyaga uchramagan tabiiy oʻsimlik qoplami Shimoliy Fargʻona togʻoldi mintaqasining 41,5 foizini tashkil qilgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2023-yilda 6,2 foizga tushib qolgan. Bu jarayon yogʻin miqdorining kamayishi, seliteb (shahar, qishloq) landshaftlarning kengayishi, yaylovlardan ekstensiv foydalanish, qurilish ishlarining jadal surʼatlarda oʻsishi orqali sodir boʻlmoqda.

